

ZAMONAVIY O'ZBEK MEDIASIDA KO'RISH BO'YICHA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR AXBOROT ISTE'MOLIDA INKLYUZIV MUHIT YARATISH IMKONIYATLARI

Ozod Qurbonov,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mediasida nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat axborot iste'molchilari uchun inklyuziv muhit yaratish imkoniyatlari hamda bu toifa insonlar masalalarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi muammolari anketa-so'rov metodi asosida o'rganiladi. Bunda O'zbekistondagi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olish va tarqatish jarayonlaridagi inklyuziv imkoniyatlar, qulay axborot olish usullari, shakllari, vositalari, bu borada uchraydigan to'siqlar, o'zbek OAV hamda mediasining inklyuzivlik darajasi, raqamli axborot resurslarining ayni toifa insonlar uchun moslashganlik darajasi singari muammolar tahliliga diqqat qaratiladi. Qolaversa, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar muammolarining o'zbek mediasida yoritilish darajasi, kontentlarda ayni mavzuni taqdim etish usullari va formatlari, mavzularning xilma-xilligi, tahlillar jarayonlariga professionallar, xususan, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat ekspertlarning jalb qilinishi, bu yo'nalishdagi kontentlarni tayyorlashda to'sqinlik qiluvchi stereotiplar tahlillari ham nazarda tutiladi. Shuningdek, empirik tadqiqotlar natijalari asosida sohani takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxs, "Bir safda" jurnali, nutq sintezatori, inklyuziv muhit, audioformat, tiflosharh, audiojurnal

1. Kirish

Dunyoda axborot oqimlari ortib borayotgan, axborot maydonidagi shiddatli jarayonlar ta'sirida mediasavodxonlik masalasi har bir insonning zarur kompetensiyasi sifatida qaralayotgan paytda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning bu axborot oqimlaridan boxabar bo'lishi va o'zlarining inklyuziv xususiyatlari asosida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishi o'ta ahamiyatli vazifa sifatida ko'ndalang bo'lmoqda. Shu asosida jahon mediasida nogironligi bo'lgan shaxslarning, nogironlik turiga ko'ra o'zlari uchun qulay bo'lgan formatlarda, to'siqsiz axborot olish imkoniyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Boshqa turdagi nogironligi bo'lgan axborot iste'molchilaridan farqli ravishda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar ma'lumot olishi uchun ularga inklyuziv sharoit yaratilgan bo'lishi taqozo etilmoqda. Alohida formatlarda maxsus nashrlar faoliyati, ko'zi ojizlarning matbuot vositalaridan foydalanishlaridagi inklyuziv sharoit masalalari media olamida kam o'rganilgan, ammo tadqiq etishga muhtoj bo'lgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar soni 800 mingga yaqin bo'lib, mamlakat aholisining 2

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi11.232>

Iqtibos:
Qurbonov, Ozod. 2025.
Zamonaviy o'zbek mediasida
ko'rish bo'yicha nogironligi
bo'lgan shaxslar axborot
iste'molida inklyuziv muhit
yaratish imkoniyatlari
Markaziy Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro
ilmiy jurnali. 10: 73-91

foizidan ortiq qismini tashkil etadi. Ayni toifa insonlarning turli jabhalardagi huquqlari davlat tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda qonun bilan muhofazalangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Ammo shunga qaramay, ularning umumjamiyatga ijtimoiy integratsiyalashuv jarayonlari hamon murakkabligicha qolmoqda. Bu murakkabliklar nogironligi bo'lgan insonlarning o'zgalar bilan kundalik muloqotga kirishishidan tortib, ta'lim olishi, ishga joylashishi, turli davlat xizmatlaridan foydalanishi kabi jarayonlarda o'z aksini topadi. Ijtimoiy integratsiya deganda: "Jamiyatdagi ijtimoiy qatlam va guruhlarning o'zaro hamkorligi" (O'zbek tilining, 2023). tushuniladi. Integratsiya jarayonlariga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning eng asosiysi jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplardir. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, ommaviy ongni boshqarishda matbuotning roli yuqoriligini inobatga olsak, jamiyatda nogironlik bilan bog'liq salbiy stereotiplarning tarqalishida ushbu yo'nalishda tayyorlanayotgan noprofessional kontentlarning ham ta'siri bor, deyish mumkin. Ommaviy axborot vositalarining qaysi turida bo'lmasin, nogironligi bo'lgan insonlar hayoti va nogironlik masalalariga sog'lom nazar bilan yondashilmas ekan, bu boradagi bugunga qadar mavjud stereotiplar saqlanib qoladi hamda yangi ko'rinishlarda tarqalishda davom etaveradi. Shu ma'noda, jurnalistikada ushbu mavzuda kontent tayyorlash masalalari islohotga muhtoj. Bu islohotlarning dastlabki qadami sifatida jurnalistlar uchun nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironlik masalalari mavzusida material tayyorlashda tavsiyalar dasturini ishlab chiqish lozim. Mazkur tavsiyalar dasturida kontent jozibadorligi uchun amal qilinishi shart bo'lgan talablar belgilab chiqiladi. Talablarning asosiy konsepsiyalari kontentning maqsadi, muallif nutqidagi iboralar, kontent natijasida axborot iste'molchilarida hosil bo'ladigan tasavvur kabi omillarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Biroq bu turdagi tavsiyalar dasturi hamda ularda belgilangan talablarni mavzu yuzasidan material tayyorlovchi jurnalistlarni senzuralash deb tushunilmasligi kerak. Aksincha, mazkur talablar ayni turdagi kontentlar talqinini tartibga solishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham nogironligi bo'lgan shaxslarning media vositasida ijtimoiylashuviga e'tibor qaratish, ommaviy axborot vositalaridan to'siqsiz foydalanishlarini ta'minlash borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmoni (O'zbekiston, 2017) bu borada muhim fundamental huquqiy asos bo'ldi. Ushbu farmonda "Nogironligi

bo'lgan shaxslarning axborot olish imkoniyatini oshirish va ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlarini ta'minlashga ko'maklashadigan efirga uzatilayotgan yangiliklar, teleko'rsatuv va videofilmlarni subtitrlar va surdo tarjima bilan birga olib borilishini tashkil etish choralari ko'rish, shuningdek, maxsus shifrlangan nashrlarni kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, nogironligi bo'lgan shaxslarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash hamda ularni oila, jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha, shu jumladan, xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olib, maxsus ijtimoiy lavhalardan foydalangan holda olib boriladigan tushuntirish ishlari sifatini va jamoat ongiga ta'siri samaradorligini oshirish" (O'zbekiston, 2017) kabilar soha vakillariga muhim vazifalar sifatida belgilab qo'yilmoqda. Bu borada milliy mass-mediada ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot iste'molidagi imkoniyatlari hamda ularning media vositasida ijtimoiylashuvi bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish shu jihatlari bilan ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

2. Adabiyotlar sharhi

Jahon jurnalistika ilmda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlarning axborot iste'molidagi inklyuzivlik, ularning media vositasida ijtimoiylashuviga bag'ishlangan tadqiqotlar qator ilmiy izlanishlarning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar matbuot vositalaridan ma'lumot olishlari uchun ularga inklyuziv sharoitlarning zarurati, audio ilovalarning ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar uchun media imkoniyatlari, telekontentlarning tiflosharhi kabi yangi yo'nalishlar, Internet ma'lumotlaridan foydalanishda ovoqli dasturlar xususiyatlari hamda nutq sintezatorlari imkoniyatlari, bundan tashqari, alohida formatlarda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlarga ixtisoslashgan maxsus matbuot nashrlarining faoliyat konsepsiyalari, shu kabi masalalar bugun ilmiy izlanishlarning markazida bo'lib, Germaniya, Ispaniya, Avstriya, Xitoy kabi mamlakatlarda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ommaviy bosma nashrlarni ovoqli formatga o'tkazish borasida AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi davlatlarda yangi tajribalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bular tashqari, dunyo olimlari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning umumjamiyatga integratsiyalashuvida jurnalistikaning roli hamda vazifalari borasida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lib, mazkur yo'nalishda Malayziya, Rossiya tadqiqotchilari tadqiqot olib bormoqda.

Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot iste'molidagi o'ziga xos uslublar, bu boradagi yechimtalab

masalalar bo'yicha jahon jurnalistikasi ilmda K. Ellis, M. Kent, K. Locke (2018) kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borgani ma'lum. Ushbu tadqiqotlarda ko'zi ojizlar uchun ovozli axborotlarning ahamiyati, ijtimoiy inklyuziyada televideniyaning roli, telekontentlarga ovozli sharhlarni biriktirish amaliyoti, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan tadqiqotchilarning elektron ilmiy jurnallardan foydalanish muammolari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Internet nogironlarning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonining ko'rsatkichi sifatida L.V. Usova va E.S. Studenikina asarlarida ko'rib chiqilgan (2020).

Nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari M.Ganiyeva (Ganiyeva, 2015), N.Latipova, A.Abduxalilov, V.Alekseyeva (2022) L.Muminova (2016), D.Nurkeldiyeva (2019), V.Alimova (2025), M.Abdualiyeva (2023), F.Komilov (2023), Z.Uzakova (2019), N.Qosimova (2017), D.Yusupov (2018), Y.Chicherina (2008), kabi o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Ular o'z tadqiqotlarida nogironligi bo'lgan insonlarning umumjamiyatga integratsiyasi, OAVda nogironlik masalalari talqini, inklyuziv ta'lim, nogironligi bor bolalarni ijtimoiy moslashuvi, nogironligi bor shaxslarning huquqlarini himoya qilishning institutsional asoslarini o'rganib, konstruktiv taklif va tavsiyalarni berganlar.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda anketa-so'rovnoma metodi qo'llanildi. Anketa so'rovnoma savollari tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan bo'lib, u onlayn shaklda olib borildi.

2024-yilning mart oyidan sentyabr oyiga qadar ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida O'zbekistondagi ayni toifaga kiruvchi axborot iste'molchilari uchun inklyuziv muhit muammolari hamda bu toifa insonlar masalalarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnomada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridan jami 102 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilar o'rtasida 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan respondentlar 10,6 %, 25-35 yosh oralig'idagilari 46,8 %, 35 dan 45 yoshgacha bo'lganlar 34 %, 45 yoshdan yuqorilar 8,5 %ni tashkil etadi. Ularning 66,7 %i erkak, 33,3 %i ayol respondentlardir. Qatnashuvchilarning 51,6 foizi zaif ko'ruvchilar, 48,4 foizi esa total ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblanadi. (1-jadval).

1-jadval. Ko'rish qobiliyatini to'liq yo'qotgan respondentlarning yoshi, jinsi va nogironlik darajasiga ko'ra tarkibi

Yoshi	Jinsi	Nogironlik darajasi
15-25 yosh 10.6 %	66,7 %i erkak	51,6 % zaif ko'ruvchilar
25-35 yosh 46.8%		
35-45 yosh 34 %	33,3 %i ayol	48,4 foiz total ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar
45 yoshdan yuqori 8.5 %		

4. Asosiy natijalar

Respondentlarga o'zbek mediasida nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan, ko'zi ojiz axborot iste'molchilari uchun inklyuziv muhit yaratish muammolari hamda bu toifa insonlar masalalarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi bilan bog'liq jami 18 ta savol bilan murojaat qilindi. Mazkur jarayon Google so'rovnoma orqali onlayn shaklda amalga oshirildi.

Dastlab respondentlarga "Asosan qaysi ommaviy axborot vositalarini kuzatib borasiz?" degan savol berildi. So'rovnoma ishtirok etganlarning 81,7 foizi asosan Internet OAVlari hamda ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini kuzatib borishlarini ta'kidlaganlar. 11,8 % ishtirokchilar radio efirlarini tinglashini, 3,2 % qatnashuvchilar telekanallarni tomosha qilishini aytib o'tgan. Shuningdek, 2,2 % respondentlar O'zbekistondagi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlar uchun chop etiluvchi yagona nashr hisoblangan "Bir safda" jurnalini, 1,1 % ishtirokchilar esa, ommaviy bosma nashrlarni mutolaa qilishini ta'kidlagan. (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar kuzatadigan OAV shakllari

"Asosan qaysi ommaviy axborot vositalarini kuzatib borasiz?"	81,7 foiz ishtirokchilar asosan Internet OAVlari hamda ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari
	11,8 % ishtirokchilar radio efirlarini
	3,2 % qatnashuvchilar telekanallarni
	2,2 % respondentlar O'zbekistondagi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlar uchun chop etiluvchi yagona nashr hisoblangan "Bir safda" jurnalini
	1,1 % ishtirokchilar esa, ommaviy bosma nashrlarni mutolaa qilishini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan axborot iste’molchilariga ma’lumot olishda asosan Internet OAVlari, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari qulay platforma hisoblanadi. Mazkur holat ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, kompyuter va mobil qurilmalarni sintez ovozlari yordamida boshqarishga ixtisoslashgan maxsus dasturiy ta’minotlar hamda ularning nutq sintezatorlari keng taraqqiy etishi bilan bog‘liq tarzda izohlanishi mumkin. So‘nggi yillarda ayni toifa tiflovositalarning rivoji natijasida Internetdagi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar hamda qator mobil ilovalarda ko‘zi ojizlarning axborot olishlari uchun inklyuziv muhit ham shakllantirilmoqda. Qolaversa, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan insonlar uchun turli sohalaridagi alohida veb-saytlar, bloklar, kanallar rivoji ham ko‘zi ojiz Internet foydalanuvchilari soni ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. O‘tmishda ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay hisoblangan yagona ommaviy axborot vositasi bo‘lgan radio bugungi kunga kelib kuzatishlar holatiga ko‘ra birinchilikdan pastga tushgan. Mazkur holatni so‘rovnoma ishtirokchilarining asosiy qismini yoshlar kontingenti tashkil etgani bilan ham izohlash mumkin. Biroq masalaga boshqa tomondan yondashilsa, radio efirlarida ko‘zi ojiz axborot iste’molchilarini jalb qila oladigan dasturlar avvalgiday yetarli emasligi ham bor gap. Masalan, birgina radiopostanovkalarni oladigan bo‘lsak, ular ayrim radio kanallarda haftaning ma’lum kunlarida efirga berilsa, ayrim kanallarda efirga uzatilish vaqti qisqartirib yuborilgan. Eng muammoli jihati, so‘nggi vaqtlarda bu kabi radiokontentlarda yangilanish holati kuzatilmadi. So‘rovnoma natijalaridan yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistondagi ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat axborot iste’molchilari orasida teledasturlar kuzatuvchilari foizi avvalgi ikki OAVdan keskin farq qiladi. Mazkur holatning asosiy sababi, o‘zbek mediasidagi telekontentlardan qulay shaklda, yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishda ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziya mavjud emas. Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasiga kiruvchi axborot iste’molchilarining telekontentlarga bo‘lgan talab darajasi holatini boshqa mamlakatlarniki bilan solishtirganda ham katta tafovutlarni ko‘rish mumkin. Shu ma’noda, xalqaro qonunchilikdagi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning O‘zbekistonda ham ratifikatsiya qilinganligi inobatga olinsa, bu borada jiddiy islohotlar amalga oshirilishi lozim.

“Bir safda” jurnali bugungi kunda O‘zbekistonda brayl yozuvidagi yagona bosma nashr sanaladi. Shunga qaramay, yoshlar orasida brayl savodxonligi bilan bog‘liq muammolar

ortishi va boshqa qator omillar sabab ushbu nashr kuzatuvchilari foizi keskin pasayib ketgan. Kuzatuvlar borasida qayd etilgan natijalarga ko'ra, garchi so'nggi o'rinda bo'lsa-da, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan axborot iste'molchilari orasida ommaviy bosma nashrlar o'quvchilarining borligining o'zi quvonarli holat. Chunki matbuotning ushbu turidan nisbatan ko'rish qobiliyati mavjud bo'lgan yoki doimiy ravishda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lmagan insonlar yordamidan foydalanuvchi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslargina axborot olishlari mumkin. Boshqa holatlarda mazkur toifa insonlar uchun ommaviy bosma nashrlarda hech qanday inklyuzivlik mavjud emas. To'g'ri, pandemiya sharoitida gazeta va jurnallarni elektron shaklda ham taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Buning uchun telegram messengerida "Gazetalar sharhi" nomi bilan alohida kanal bugungi kunda ham faoliyat yuritmoqda (Gazetalar, 2025). Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga ixtisoslashgan mavjud nutq sintezatorlari orqali ularni kuzatib borish imkoni bor. Ammo ushbu Telegram kanaliga joylashtiriluvchi barcha fayllar ham nutq sintezatori orqali o'qishga mo'ljallanmagan. Aniqrog'i, ularni elektron formatga o'tkazishda bu omil hisobga olinmagan. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish borasida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlar uchun inklyuziv sharoit yaratish masalasi ularning turlariga ko'ra, alohida-alohida yondashuvni talab etsa-da, bu muammolarning yechimi bir nuqtada, ya'ni ko'zi ojizlarni axborot olishdagi teng huquqliligini ta'minlash vazifasini bajarishda kesishadi.

"Sizga axborotlarni qanday shaklda qabul qilish qulay?", degan savolga respondentlarning 43 foizi nutq sintezatori yordamida deb javob bergan bo'lsa, 39,8 % qismi audio shaklni ma'qul ko'rishgan. Shuningdek, 8,6 % qatnashchi vizual shaklda, 7,5 % esa brayl yozuvi vositasida axborot olishlarini ta'kidlagan. (3-jadval).

3-jadval. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olish shakllari

Sizga axborotlarni qanday shaklda qabul qilish qulay?	respondentlarning 43 foizi nutq sintezatori yordamida
	39,8 % qismi audio shaklni
	8,6 % qatnashchi vizual shaklda
	7,5 % esa brayl yozuvi vositasida axborot olishlarini ta'kidlagan.

Respondentlarning javoblari shuni anglatadiki, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan axborot iste’molchilarining teng huquqliligini ta’minlashda birinchi galda internet tarmoqlaridagi axborot uzatuvchi rasmiy veb-manzillarni ular uchun moslashtirish, bu borada foto va videolavhalarga matn va ovozli izohlarni biriktirish, shuningdek, matnli axborotlarni qo‘shimcha tarzda audio formatda ham uzatish kabi amaliyotlarni joriy qilish lozim. Internet tarmoqlarida matnli axborotlarni audio shakli bilan birga uzatish amaliyoti ba’zi veb-saytlar, xususan, kun.uz saytida yo‘lga qo‘yilgan (Aholi, 2025). Biroq bu kabi kollaboratsiya ushbu saytlarga joylashtirilayotgan kunlik xabarlarining barchasiga ham tegishli emas. Xabarlarining sayt muharrirlari tomonidan saralanganlarigina audioformatga o‘tkazilishi, yuqorida ta’kidlangan tenghuquqlilikni ta’minlashdan ko‘ra, uni cheklashga xizmat qiladi. Shuning uchun bu borada balansni birdek ushlab turish choralariga e’tibor qaratilishi shart. Bulardan tashqari, Internet tarmog‘ining o‘zbek segmentida ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ixtisoslashgan veb-saytlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularni tegishli sohalarga yo‘naltirgan holda kengaytirishga diqqat qaratilishi ham maqsadga muvofiq. Buning natijasida ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan turli soha vakillari o‘zlarini erkin namoyish etishi, o‘z yo‘nalishida erishayotgan yutuqlari va bu boradagi muammolar bilan keng jamoatchilikni boxabar qilishiga sharoit yaratiladi. Qolaversa, bu turdagi saytlar ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar va mutasaddi tashkilotlar o‘rtasida kommunikasion platforma vazifasini ham bajaradi. Davlat idoralari ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar yutuqlari va muammolarini his etishi, shu bilan birga, ko‘zi ojizlar ham davlat e’tiborini his etishiga erishiladi.

“OAVlardagi qanday turdagi ma’lumotlar ko‘proq diqqatingizni tortadi?” degan savolga ishtirokchilarning 63,2 % qismi nogironlik masalalariga tegishli axborotlar, 61,1 % qismi esa siyosiy mavzular qiziqtiradi, deb javob bergan. Shuningdek, 43,2 % respondentlar huquqiy masalalar, 41,1 %i intellektual mavzular, 36,8 %i tibbiyotga doir ma’lumotlar, 22,1 %i san’at sohasiga tegishli yangiliklar, 22,1 %i faqat kasbga oid ma’lumotlar va nihoyat 17,9 % ishtirokchilar sport xabarlarini kuzatib borishini ta’kidlagan. (4-jadval).

4-jadval. Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar OAVda kuzatadigan ma‘lumotlarning mavzuviiy tasnifi

OAVlardagi qanday turdagi ma‘lumotlar ko‘proq diqqatingizni tortadi?	ishtirokchilarning 63,2 % qismi nogironlik masalalariga tegishli axborotlar
	61,1 % qismi esa siyosiy mavzular
	43,2 % respondentlar huquqiy masalalar,
	41,1 %i intellektual mavzular
	36,8 %i tibbiyotga doir ma‘lumotlar,
	22,1 %i san‘at sohasiga tegishli yangiliklar
	22,1 %i faqat kasbga oid ma‘lumotlar
	17,9 % ishtirokchilar sport xabarlarini kuzatib borishini ta’kidlagan.

Berilgan javoblarga e‘tibor qaratilsa, so‘rovnomada qatnashgan ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan axborot iste’molchilarining asosiy qismini nogironlik masalalariga doir axborotlar qiziqtiradi. Bu borada kontent tayyorlashda jurnalistlardan izlanuvchanlik talab qilinadi. Chunki nogironlik masalalari deganda faqatgina biror tashkilotda ayni toifa insonlar ishtirokida o‘tkazilgan tadbirlar bilan cheklanish to‘g‘ri yechim sanalmaydi. Bu borada tayyorlanuvchi kontentlar uchun mavzular turfaligiga e‘tibor qaratilishi lozim. Agar axborot iste’molchilarini O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun turli yo‘nalishlarda qabul qilinuvchi qonun hujjatlari qiziqtirsa, u holda soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar ishtirokida bu boradagi qaror va farmonlarning batafsil tahliliga bag‘ishlangan muloqotlarni tashkil etish lozim. Agar boshqa mamlakatlarda yashovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar hayoti qiziqtirsa, bu borada xorijiy safarlar natijalari yoki Internet materiallari asosida qiziqarli kontentlar tayyorlash mumkin. Ayni toifa axborot iste’molchilarini eng ko‘p qiziqtiradigan mavzulardan yana biri siyosiy ma‘lumotlardir. Bugungi kunda jahon sahnida ro‘y berayotgan siyosiy o‘zgarishlar, muzokaralar, tahlikali vaziyatlar boshqalar qatori nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotiga ham bevosita ta’sir o‘tkazishi tabiiy holdir. Shulardan kelib chiqib, ayni toifa axborot iste’molchilariga mavzuga doir xolis va ishonchli axborotlarni ularga qulay formatlarda yetkazish ham davr talabiga aylanib bormoqda. Mazkur amaliyot jarayonida axborotning xolisligiga alohida urg‘u berilishida ikki muhim jihat mavjud. Birinchidan, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan insonlarni turli provakatsion axborot xurujlardan himoyalash, ikkinchidan, ularning siyosiy

bilimlarini oshirish hamda siyosiy tahlil ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish. Ayni yo'nalishdagi kontentlarda mazkur jihatlar yetakchi talab sifatida nazardan qochirilmasligi lozim.

“Ommaviy axborot vositalarida taqdim etiluvchi ma'lumotlarga ishonasizmi?” degan savolga javob o'laroq, 56,8 % respondent bir nechta manbalarni solishtirgan holda tekshirib ko'rishlarini ta'kidlab o'tgan bo'lsa, 24,2 % qatnashchi qisman ishonishini aytib o'tgan. 18,9 % ishtirokchi OAVdagi xabarlariga to'liq ishonishlarini, bor-yo'g'i 0,1 % respondentlar esa mutlaqo ishonmasliklarini qayd etgan. (5-jadval).

5-jadval. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning OAVga ishonch darajasi

Ommaviy axborot vositalarida taqdim etiluvchi ma'lumotlarga ishonasizmi?	56,8 % respondent bir nechta manbalarni solishtirgan holda tekshirib ko'rishlarini
	24,2 % qatnashchi qisman ishonishini
	18,9 % ishtirokchi OAVdagi xabarlariga to'liq ishonishlarini
	0,1 % respondentlar esa mutlaqo ishonmasliklarini qayd etgan.

Javoblarga e'tibor qaratilsa, so'rovnomada ishtirok etganlarning asosiy qismi biror axborotning chin yoki feyk ekanini ajratib olish uchun bir nechta manbalarni solishtirish asnosida tekshirib olishlarini aytib o'tgan. Agar respondentlarning aksari yoshlar ekanligi inobatga olinsa, bu ijobiy natija hisoblanadi. Demakki, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan axborot iste'molchilari mediasavodxonlikdagi eng muhim nuqtalardan biri hisoblangan tashqaridan uzatilayotgan axborotlarni faktcheking qilish tushunchasiga ega. Endilikda ularning mediasavodxonlik ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirishda, ayni mavzuga tegishli adabiyotlarni ularga qulay formatlarga o'tkazish, ushbu qo'llanmalardan nafaqat jurnalistika mutaxassisligi talabalari o'rtasida, balki ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar tahsil oluvchi barcha oliy o'quv yurtlarida keng targ'ib qilish lozim. Mazkur amaliyot axborot xuruji keng avj olgan bugungi murakkab vaziyatda ehtiyoj bilan bir qatorda talab darajasiga ham ko'tarilib ulgurdi.

“Ommaviy axborot vositalarida taqdim etiluvchi ma'lumotlarni ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar ham birdek qabul qilishlarida qanday kamchiliklar bor deb hisoblaysiz?” degan savolga respondentlarning 58,7 foizi telekontentlarga tiflosharhlar qo'yilmaydi, bu ko'zi ojizlar uchun zarur, yo'lga qo'yilishi kerak, deb javob bergan bo'lsa, 50 % qismi gazeta va jurnallar audio ilovalari bilan chop etilmasligini muammo sifatida ko'rsatgan. Shuningdek, 48,9 % ishtirokchi

bosma nashrlarning nutq sintezatorida o'qishga qulay formatdagi elektron shakllari deyarli mavjud emasligini, 43,5 % qatnashchi esa videolavhalar yoki radioeshittirishlarda og'zaki izohlar hamda tushuntirishlar yetarli darajada emasligini ta'kidlaganlar. So'rovnoma ishtirokchilarining bor-yo'g'i 21,7 foizi o'zlariga kerakli axborotni qulay shakllarda olishini, ularda qo'shimcha vositalarga ehtiyoj yo'qligini aytib o'tishgan (6-jadval).

6-jadval. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar uchun OAVda yaratilgan texnik imkoniyatlar darajasi

Ommaviy axborot vositalarida taqdim etiluvchi ma'lumotlarni ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar ham birdek qabul qilishlarida qanday kamchiliklar bor deb hisoblaysiz?	respondentlarning 58,7 foizi telekontentlarga tiflosharhlar qo'yilmaydi, bu ko'zi ojizlar uchun zarur, yo'lga qo'yilishi kerak, deb javob bergan
	50 % qismi gazeta va jurnallar audio ilovalari bilan chop etilmasligini muammo sifatida ko'rsatgan
	48,9 % ishtirokchi bosma nashrlarning nutq sintezatorida o'qishga qulay formatdagi elektron shakllari deyarli mavjud emasligini
	43,5 % qatnashchi esa videolavhalar yoki radioeshittirishlarda og'zaki izohlar hamda tushuntirishlar yetarli darajada emasligini
	21,7 foizi o'zlariga kerakli axborotni qulay shakllarda olishini, ularda qo'shimcha vositalarga ehtiyoj yo'qligini aytib o'tishgan

Qayd etilgan javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bosma nashrlarni ovozli formatga o'tkazish hamda telekontentlarga tiflosharhlarni biriktirish mavzulari atrofida ko'tarilgan masalalarning amaliy ijrosiga kirishish kechiktirib bo'lmas ehtiyojga aylanib ulgurgan. Albatta, bu borada ma'lum bir tajriba ortirmay turib, samarali ko'rsatkichga erishish qiyin. Qolaversa, ushbu jarayonlar katta miqdordagi mablag' hamda uzoq muddatli vaqtni talab etadi. Shu ma'noda, masala yechimiga olib boruvchi dastlabki harakatlarni ayni yo'nalishda shakllantirilgan ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan boshlash lozim. Bu turdagi loyihalarda sohaga jalb qilingan mutaxassislarini xorijiy davlatlarda maxsus o'qitish, O'zbekistonda ham tiflosharhlovchilar maktabini shakllantirish, shuningdek, bosma nashrlarni ovozli formatga o'tkazishda tahririyatlar bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish, mustaqil audiojurnallar turlarini ko'paytirish, ayni yo'nalishdagi nashrlarga material tayyorlovchi muxbirlar faoliyatini rivojlantirish kabilar bosh vazifa sifatida belgilab olinishi maqsadga muvofiq.

So'rovnoma ishtirokchilariga OAVlarda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan axborot iste'molchilari uchun inklyuziv sharoit yaratish mavzusi bilan bir qatorda ayni toifa shaxslar masalalarining matbuot vositalaridagi talqiniga doir savollar ham berildi. Masalan, "Nogironlik mavzusi, sizningcha, qay tarzda yoritiladi?" degan savolga 65,9 % qatnashchi deyarli bir xil, asosan achinish yoki shukronalik hissini uyg'otish, boshqalarga namuna qilib ko'rsatish degan javobni bergan. 23,1 % qatnashchi xilma-xil. Ko'zi ojiz kishilarning real hayotidan kelib chiqqan holda yoritiladi, deb hisoblasa, 11 % respondent ko'zi ojizlar hayotidan mutlaqo uzoq, degan fikrda.

Mana shu faktorning o'ziyoq o'zbek jurnalistikasida nogironlik masalalari talqinida jurnalistlarning mualliflik pozitsiyasi bir yoqlama tahlilga asoslanganini ko'rsatib turibdi. Bu jihat mavzuga doir kontentlarning asosiy figuranti hisoblangan nogironligi bo'lgan insonlar tomonidan ham tasdiqlanishi ushbu yo'nalishda sohada islohotlarga kuchli ehtiyoj bor, degan xulosani yana bir bor dalillaydi. Tabiiyki, bu o'z navbatida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning o'zlari OAVda qay jihatdan talqin etilishini istashi borasidagi savolni yuzaga chiqaradi.

"Nogironligi bo'lgan shaxs sifatida ommaviy axborot vositalarida sizni qay jihatdan yoritishlarini xohlagan bo'lardingiz?" degan savolga respondentlarning asosiy qismi, ya'ni 46,7 foizi o'zlarini boricha, yutuq va kamchiliklari bilan birga yoritilishi tarafdori ekanini bildirgan. 25,6 % ishtirokchi jurnalistlar tomonidan asosan muammolariga e'tibor qaratilishini istashini aytgan. 7,8 % qatnashchilar hayotda erishgan yutuqlariga ko'proq urg'u berilishi talabida. Yana shuncha respondent o'zgalarga motivatsiya vositasi sifatida ko'rsatilishi tarafdori. Bulardan tashqari, 8,9 % ishtirokchi nogironligi tufayli OAVda chiqish qilishni istamasligini ta'kidlagan (7-jadval).

7-jadval. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning mediadagi qiyofasi

Nogironligi bo'lgan shaxs sifatida ommaviy axborot vositalarida sizni qay jihatdan yoritishlarini xohlagan bo'lardingiz?	respondentlarning 46,7 foizi o'zlarini boricha, yutuq va kamchiliklari bilan birga yoritilishi tarafdori
	25,6 % ishtirokchi jurnalistlar tomonidan asosan muammolariga e'tibor qaratilishini istashini
	7,8 % qatnashchilar hayotda erishgan yutuqlariga ko'proq urg'u berilishi talabida
	7,8 % respondent o'zgalarga motivatsiya vositasi sifatida ko'rsatilishi tarafdori.
	8,9 % ishtirokchi nogironligi tufayli OAVda chiqish qilishni istamasligini ta'kidlagan.

Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan respondentlar javoblariga diqqat qilinsa, ular birinchi navbatda o'zlarining qanday bo'lsa, shundayligicha talqin etilishi tarafdori. Bundan anglashiladiki, jurnalistlar ushbu mavzu doirasida material tayyorlaganda asosiy urg'uni o'zi talqin qilayotgan qahramonidagi nogironlik belgisiga qaratishi nafaqat kasb etikasiga zid holat, balki mazkur kontent uchun qahramon sifatida tanlangan shaxslar uchun ham ma'qul emas. Shu ma'noda, ayni yo'nalishda kontent tayyorlovchi mualliflarga dogmatik qarashlar, nosog'lom rakurslardan voz kechish, tibbiy va ijtimoiy model tushunchalarini yaxshi o'zlashtirib olish, yondashuvda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning ham konstitutsion huquqlarini hurmat qilish tavsiya etiladi. Javoblardagi yana bir e'tiborli holat, 25 % dan ortiq qatnashchilar OAVda o'z muammolariga e'tibor qaratilishini istashidir. Bu nuqtada muammo deganda, aksar talqinlardagi ifodalanadigan moddiy holat, xayriya yordamlariga ehtiyoj kabilar tushunilmasligi kerak. Balki ularning jismoniy holati tufayli umumjamiyatda ijtimoiy munosabatlarga kirishishlarida yuzaga keladigan muammolarga ko'proq urg'u qaratilishi nazarda tutiladi. Masalan, respondentlardan biri bu borada oila psixologiyasiga ko'proq e'tibor qaratilishini e'tirof etgan. Darhaqiqat, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlarning umumjamiyatga ijtimoiylashuvi oiladan boshlanadi. Uning kelgusida ta'lim olishi, biror kasbni egallashi va aksincha hayotda yakkalanib qolishi, buning oqibatida ruhan sinishi ham aynan oila muhitiga bog'liq. Shu ma'noda, jurnalistlar mavzuga doir muammolar deganda, eng avvalo, odatiy oilada tug'ilgan ko'zi ojiz farzand parvarishi, uning tarbiyasi, boshqalar bilan munosabat qurish kabi mavzularga e'tibor qaratsa, bu borada tajribali ota-onalar ishtirokida suhbatlar tashkil etsa, maqsadga muvofiqdir. Bu kabi kontentlar, birinchi navbatda, atrofdagilarni ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga ham o'zi kabi mustaqil shaxs ekanligini anglatga, ikkinchidan, ayni toifa farzandi bor ota-onalarga yo'riqnoma vazifasini ham o'taydi. Ushbu mavzuning yana bir jihati, ya'ni ko'rish bo'yicha nogironligi shaxslardan iborat oilalar, ularning turmush tarzi, farzand tarbiyasida tutgan yo'llari masalasi ham bu borada qiziqarli va sifatli kontent bo'la oladi. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar hayoti ham ommaviy axborot vositalarida u qadar keng yoritilmaydi. So'rovnoma qatnashchilari bu toifa talabalar bilan bevosita muloqotlar o'tkazilishini, ularning qiziqishlari, rejalari, maqsadlari haqida ham xolis kontentlar tayyorlanishini istashlarini ta'kidlab o'tdilar. Bular tashqari, jurnalistlarga ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari bo'yicha shaharsozlikdagi taktil yo'laklar, jamoat transporti bekatlarida nechinchi sonli avtobus kelganidan darak beruvchi ovozli hamda bo'rtma nuqtali tablolarini o'rnatish, avtobus harakatlanishi paytida to'xtagan va

keyingi bekatlar borasida ovozli ma'lumot berish, davlat idoralari, ta'lim korpuslarida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar erkin harakatlanishi uchun qulayliklarni shakllantirish kabi mavzularni yoritish tavsiya etiladi. Aslida matbuotning kuchi, jurnalistning iqtidori boshqalarda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan shafqat hissini uyg'ota olishi bilan emas, balki ular uchun dolzarb sanalgan ijtimoiy muammolarni hal etilishidagi ishtiroki bilan belgilanadi. Shu o'rinda mavzuga doir sifatli kontent tayyorlashda jurnalist ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar hayotini chuqurroq o'rganibgina qolmay, balki ular bilan yaqindan hamkorlik qilishga ham ehtiyoj bor, degan mulohazalar paydo bo'ladi.

Ushbu fikrlar tasdig'i o'laroq respondentlarga ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar masalalariga doir "OAVdagi materiallarni tayyorlashda ayni toifa nogironligi bo'lgan shaxslarning ishtiroki qay darajada bo'lishi kerak?" degan savol bilan murojaat qilindi. Qatnashchilarning 39,8 % qismi tayyorlanayotgan materiallardagi ma'lumotlar ikkilamchi vositalardan emas, bevosita ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslardan olinishi kerak, deb hisoblashlarini ta'kidlagan. 38,7 % respondentlar bu kabi kontentlarni tayyorlashda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar fikrlariga tayanilsa, maqsadga muvofiq degan fikrda. Bulardan tashqari, 15,1 % ishtirokchi bu borada ayni sohada faoliyat yurituvchi ekspertlarga murojaat qilinishi zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, 6,5 % respondent mavzuga oid materiallar ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan mualliflar tomonidan tayyorlanishi lozim, degan fikrni qo'llab-quvvatlaganlar.

So'rovnoma ishtirokchilarining mazkur masala yuzasidan bildirgan mulohazalaridan anglashiladiki, respondentlarning 4 dan 3 qismi muammoga yechim sifatida jurnalistlarning ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar bilan bevosita muloqotga kirishishlari, deb biladi. Bildirilayotgan mulohazalar ham jurnalistning professional yondashuvidan ko'ra, ko'proq oddiy odamlarning taassurotlari, hayratlari yig'indisiday tasavvur qoldiradi kishida. Bulardan tashqari, so'rovnoma qatnashchilari ta'kidlaganlaridek, bu mavzuda sifatli kontent tayyorlashda ekspertlarga murojaat qilish ham samarali natija beradi. Bugungi kunda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari bo'yicha xolis ekspert bo'la oladigan insonlar yetarli. Aynan ekspertlar bilan ishlash borasida gazeta.uz saytini faol tahririyat, deb aytish mumkin. Chunki sayt xodimlari nafaqat ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar, balki boshqa turdagi nogironligi bo'lgan shaxslar masalalarida ham asosan ekspert mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shuningdek, saytda e'lon qilinadigan mavzuga doir materiallarda asosan

yuqorida ta'kidlangani kabi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar hayoti uchun muhim hisoblangan muammolar ko'tariladi (Davlat, 2025).

5. Xulosa va takliflar

O'zbekistondagi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan axborot iste'molchilari uchun inklyuziv muhit muammolari hamda bu toifa insonlar masalalarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi bo'yicha o'tkazilgan empirik tadqiqotning natijalarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, avvalo, mazkur toifa insonlar uchun axborot olishda boshqatardagi matbuot vositalaridan Internet OAV, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari qulay platforma hisoblanadi. Negaki, Internet saytlaridan kompyuter va mobil qurilmalar interfeysida mavjud bo'lgan, ko'zi ojizlar uchun ixtisoslashgan ovozli dasturlar va ularning nutq sintezatorlari vositasida mustaqil ma'lumot olish imkoni bor. Mavjud sharoitni yanada optimallashtirish uchun internet tarmoqlaridagi axborot uzatuvchi rasmiy veb-manzillarni ular uchun moslashtirish, bu borada foto va videolavhalarga matn va ovozli izohlarni biriktirish, shuningdek, matnli axborotlarni qo'shimcha tarzda audioformatda ham uzatish kabi amaliyotlarni joriy qilish lozim. Shu bilan birga media vositalarining qolgan turlarida ham ayni toifa axborot iste'molchilariga inklyuziv muhit yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularni kechiktirmay amaliyotga tatbiq etish zarur. Ommaviy axborot vositalarida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari talqinida ham mavzuga turli rakurslardan turib yondashish, ko'zi ojizlarning talab va istaklaridan kelib chiqib, ularning hayotda erishayotgan muvaffaqiyatlari, umumjamiyatda ijtimoiy munosabatlarga kirishishda duch kelayotgan muammolariga to'g'ri baho bera olish ko'nikmalarini shakllantirish, tayyorlanuvchi materiallardagi ma'lumotlarni ikkilamchi vositalardan emas, bevosita ko'zi ojiz shaxslardan olish, ularning fikrlari ham hurmat qilinishiga e'tibor qaratish, hech bo'lmaganda ayni sohada faoliyat yurituvchi ekspertlarga murojaat qilish bugungi kun jurnalistlari oldidagi muhim vazifalar hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, jurnalistikada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv imkoniyatni yaratishda eng muhim talablarni belgilab olish lozim. Bu talablarga:

A. Maxsus nashrlar faoliyatini rivojlantirish hamda ommalashtirish;

B. Nogironligi bo'lgan jurnalistlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

C. Sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida ayni toifa talabalar uchun alohida metodlar, qulay formatlardagi darsliklarni

joriy qilish;

D. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda to‘siqsiz muhit yaratish, bu boradagi asosli takliflarni qo‘llab-quvvatlash;

E. Matbuotda nogironlik masalalarining to‘g‘ri talqin etilishiga erishish kabilarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, sohada faoliyat yurituvchi ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan jurnalistlar malakasini oshirishda ular uchun turli o‘quv-amaliy seminar treninglar tashkil etish, bu toifadagi jurnalistlarni maxsus nashrlar bilan cheklanib qolmay, tahririyatlarda ham o‘z iqtidorini sinab ko‘rishga imkon berish, shuningdek, turli davlat tadbirlari hamda matbuot konferensiyalarida ishtirokini ta‘minlash zarur.

To‘rtinchidan, ommaviy axborot vositalari jurnalistlari uchun nogironlik masalalarini yoritishda qator talablarni o‘z ichiga olgan tavsiyalar dasturini ishlab chiqish, bunda:

A. Jurnalistning nogironlik masalalarida kontent tayyorlashdan maqsadi;

B. Mavzuga nisbatan mualliflik pozitsiyasi;

C. Materiallarda qo‘llaniladigan so‘z va iboralarga e‘tiborliligi;

D. Tayyorlanuvchi kontent orqali o‘zi uzatadigan xabarning tasviri, talqini va ta‘siri kabi omillarga mas‘uliyatlili;

E. Buning uchun o‘zi talqin etishni maqsad qilgan ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan qahramonini yoki unga tegishli masalalarni chuqur o‘rganishga ishtiyoqi kabilarni bosh vazifa sifatida belgilab qo‘yish lozim. Keltirilgan barcha taklif va tavsiyalar tiflojurnalistika sohasi rivojidadagi dastlabki, ammo jiddiy qadamlar hisoblanadi. Jurnalistika ilmi rivojlanar ekan, bu boradagi yangi tadqiqotlarga ham hamisha ehtiyoj sezilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Aholi savollariga sodda va qulay javob beradigan onlayn platforma ishga tushiriladi. (2025). Kun.uz. Matnga kirish: <https://kun.uz/news/audio/list>

Davlat tibbiyot markazlaridagi asbob — uskunalar ishlamay qolmoqda, aholi dori-darmonlarga pul sarflashda davom etmoqda-prezident. (2025). Gazeta.uz. Matnga kirish: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/07/childcare/>

Gazetalar sharhi. (2025). Telegram. Matnga kirish: https://t.me/gazetalar_sharhi

Komilov, F.O. (2023). Nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni institutsional takomillashtirish. O‘zbekiston Milliy universiteti [Matn]: monografiya. Toshkent. Bola va zamon nashriyoti. 124.

Nurkeldiyeva, D.A. (2019). O‘zbekistonda alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarning korreksion-pedagogik abilitatsiyasi va kompleks qo‘llab-quvvatlash / “Ukrepleniye sotsialnoy raboty v obespechenii

blagopoluchiya detey i semey v Uzbekistane. Mvzusidagi xalqaro forum materiallari. Toshkent. 170-171.

O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jild. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan. (2017). Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmoni. Matnga kirish: <https://lex.uz/docs/-3436192>

Qosimova, N., Isakov, O. (2017). O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida nogironlik mavzusining yoritilishi o'quv-amaliy qo'llanma. Toshkent. Extremum-press.

Uzakova, Z.F. (2019). Alohida ehtiyojli yoshlarning ijtimoiylashuvi, mehnatga integratsiyalashuvining o'ziga xos xususiyatlari. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.

Yusupov, D. (2018). Ko'rinmas odamlar. Gazeta.uz. Matnga kirish: <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/29/statistics/>

Абдувалиева, М. (2023). Механизм совершенствования социальной адаптации детей с инвалидностью. Монография. Ташкент. Зебо принтс. 156.

Алексеева, В.С. (2022). Социальная защита лиц с инвалидностью как средство обеспечения мобильности уязвимых групп населения. Вестник Национального университета Узбекистана, 1(6). 46-52.

Алимова, В.С. (2025). Целенаправленная реабилитация детей с церебральным параличом в условиях Республиканского центра социальной адаптации детей. Медицинские науки. 3. Доступ: <https://cyberleninka.ru/article/n/tselenapravlenneya-reabilitatsiya-detey-s-tserebralnym-paralichom-v-usloviyah-respublikanskogo-tsentra-sotsialnoy-adaptatsii-detey>.

Ганиева, М.Х. (2015). Социальная работа с разными группами населения. Общественное мнение. Право человека, 4. 110-116. Ташкент. Ижтимоий фикр.

Латыпова, Н.М., Абдухалилов А.А., Алексеева В.С. (2022). Социальные барьеры в процессе формирования инклюзивного общества. Историческая и социально-образовательная мысль. 110-127.

Муминова, Л.Р. (2016). Социальная защита детей в Узбекистане: наука и практика. Ташкент. Спектр Медиа групп.

Усова, Л.В., Студеникина, Е.С. (2020). Теория и практика общественного развития, 6 (148). 18-22.

Чичерина, Я.Е., Муминова, Л.Р. (2008). Методы и содержание коррекционно-развивающей работы по развитию интеллектуальных способностей воспитанников детских домов "Мехрибонлик" в 2008 году. 4. Доступ: <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-i-soderzhanie-korreksionno-razvivayuschey-raboty-po-razvitiyu-intellektualnyh-sposobnostey-u-vospitannikov-detskih-domov/viewer>

Abdukhalilov, A.A., Yusupov D. (2022). Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan: A pilot qualitative study of disabled people's lived experiences. *Journal of International Development*, 34 (5). DOI: 10.1002/jid.3693.

Ellis, K., Kent, M., Locke, K. (2018). Audio description and Australian Television. Curtin University. Vernon Humphrey. Identifying the Cultural Void: Differences Between Sighted and Visually Impaired Researchers. *Access to Communication E-journals*. 102-127.

Muratova, N. (2023). Mass media in Central Asia: between free media and new forms of censorship. *International scientific journal of media and communications in Central Asia*, 1(1). 24-31. Retrieved November 13, 2025 from <https://media-ca.com/index.php/media/article/view/7/16>

Rasmukhamedova, F., Yusupova, Y., Muratova, N. & Antonov-Ovseenko, A. (2024). Inclusive education in Central Asia: the case of Uzbekistan: rights vs opportunities. *International scientific journal of media and communications in Central Asia*, (6). 23-37. <https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi6.70>

Mualliflar haqida:

Kurbonov Ozod — Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, ozodqurbonov1987@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ СОЗДАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОЙ СРЕДЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ ЛИЦАМИ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СМИ

Аннотация: В данной статье исследуются возможности создания в узбекских СМИ инклюзивной среды для лиц с ограниченными возможностями, в частности, для потребителей информации, состоящей из лиц с нарушениями зрения, а также проблемы освещения в средствах массовой информации этой категории людей на основе анкетно-опросного метода. При этом акцент будет сделан на анализе таких проблем, как инклюзивные возможности в процессах получения и распространения информации лицами с нарушениями зрения в Узбекистане, доступные методы, формы, средства получения информации, препятствия, с которыми сталкиваются узбекские СМИ и СМИ, уровень инклюзивности узбекских СМИ, уровень адаптации цифровых информационных ресурсов для данной категории людей. Кроме того, предполагается уровень освещения в узбекских СМИ проблем лиц с нарушениями зрения, методы и форматы представления этой темы в контенте, разнообразие тем, привлечение к процессам анализа профессионалов, в частности экспертов, состоящих из лиц с нарушениями зрения, анализ стереотипов, препятствующих подготовке контента в этом направлении. Также на основе результатов эмпирических исследований будут разработаны практические рекомендации по совершенствованию отрасли.

Ключевые слова: человек с нарушениями зрения, журнал “В одном ряду”, синтезатор речи, инклюзивная среда, аудиоформат, тифлокомментарий, аудиожурнал

Об авторе:

Курбонов Озод — преподаватель кафедры узбекского языка и литературы факультета международных отношений и социальных наук Университета журналистики и массовых коммуникаций,
ozodqurbonov1987@gmail.com

OPPORTUNITIES FOR CREATING AN INCLUSIVE
ENVIRONMENT FOR INFORMATION CONSUMPTION BY
PEOPLE WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN MODERN UZBEK
MEDIA

Abstract: This article investigates the current state and potential development of an inclusive media environment for persons with disabilities in Uzbekistan, focusing specifically on audiences with visual impairments. Drawing on a questionnaire-based empirical study, the research critically examines both the accessibility of media content and the extent to which the Uzbek media system accommodates the informational needs of visually impaired individuals. The study situates the issue within broader discussions on media accessibility, digital inclusion, and social participation, emphasizing the interplay between technological adaptation and sociocultural representation. Particular attention is devoted to analyzing the mechanisms and institutional conditions that shape access to information, including available formats, tools, and technologies such as audio materials, speech synthesizers, and typhlocommentary. The research also identifies persistent systemic barriers — infrastructural, technological, and attitudinal — that limit the full participation of visually impaired audiences in the media sphere. In addition to structural analysis, the article explores the media portrayal of people with visual impairments in Uzbekistan, assessing the thematic scope, narrative strategies, and discursive tendencies observable in mainstream and specialized outlets. The study evaluates the extent to which inclusive narratives are integrated into journalistic practice, the diversity of content forms addressing disability-related issues, and the involvement of experts and practitioners with visual impairments in content creation and policy discussions. The findings reveal that, despite growing recognition of the importance of inclusion, the Uzbek media ecosystem remains only partially adapted to the needs of visually impaired users. .

Keywords: visual impairment, inclusive media, accessibility, disability studies, audio formats, speech synthesizer, typhlocommentary, Uzbekistan

About the author:

Kurbonov Ozod — Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of International Relations and Social Sciences, University of Journalism and Mass Communications; ozodqurbonov1987@gmail.com